



## Xorijiy tillarni boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish ahamiyati va samaradorligi

**Xaitova Gulmira Axmatovna**

Toshkent viloyati Zangiota tumani

12-umumta'lim maktabi

ingliz tili fani o'qituvchisi

[tel: +998913111279](tel:+998913111279)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganishning ahamiyati va samaradorligi, hamda shu bilan uni amalga oshirishga qaratilgan yondashuv va yuzaga keladigan muammolarga yechimlar haqida so'z boradi.

**Kalit atamalar:** qabul qilish qobiliyati, idrok etish qobiliyati, aniq maqsadlar uchun ingliz tili, o'zaro ta'lim

**Аннотация:** В данной статье говорится о важности и эффективности изучения иностранных языков в связи с другими предметами, а также о подходе к его осуществлению и решению возникающих проблем.

**Ключевые термины:** рецептивный навык, перцептивный навык, английский для специальных целей, междисциплинарное обучение.

**Abstract:** This article talks about the importance and effectiveness of studying foreign languages in connection with other subjects, as well as the approach to its implementation and solving emerging problems.

**Key words:** receptive skill, perceptual skill, English for specific purposes, interdisciplinary learning.



Barcha rivojlanib borayotgan davlatlardagi kabi bizning mamlakatimizda ham chet tillarini o'qitishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy dunyo talabi o'laroq bu bejizga emas albatta. Mamlakatning ilmiy, iqtisodiy rivoji va keng ko'lamli xalqaro aloqalarini ta'minlanishi albatta har sohada mutaxassislarning chet tili savodxonlik darajasiga bo'lgan talabni oshiradi. So'nggi yillarda chet tilini o'qitish tamoyillarini takomillashtirish va o'rganishni rag'batlantirishga qaratilgan qator chora tadbirlar o'z samarasini ko'rsatmoqda, chet tilida erkin muloqat olib borayotgan yoshlar soni oshib bormoqda. Buni biz ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari orasida ham chet tilida fikr bildirish kengayib borayotganligi yoxud kirish imtihonlarida ham chet tili fanlaridan abituriyentlar natijalari yaxshilaniib borayotganligidan payqashimiz mumkin. Ta'lim tashkilotlarida aynan chet tili darslarining sifatini oshirishga qaratilgan moddiy texnik bazalar ham sezilarli darajada yaxshilanganligini, darsliklar sifati avvalgidan birmuncha oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, chet tillarini o'qitish jarayonlarida hamon bir qancha masalalar dolzarb bo'lib qolayotganligi va bu sohalarda o'z salbiy ta'sirini namoyon etayotganligi ham rost. Xususan, Education First tashkiloti tomonidan e'lon qilingan ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha ro'yhatda (English language Proficiency Index) O'zbekiston o'tkan yilgi natijadan to'rt pog'ona pastlab 113 mamlakat orasidan 93 o'rindan joy olganligi hali bu sohada qator kamchiliklar borligini ko'rsatadi.

Avvalo, hozirda O'zbekistonda chet tilini o'qitish asosan muloqotni ta'minlab beruvchi to'rtta (receptive and productive skills) kompetensiyaga bo'lib o'rgatilishi asos qilib olingan. Bu albatta juda samarali usul bo'lib, tilning amaliy ahamiyatini yuzaga chiqarishda juda muhim. Maktabgacha va maktab ta'limi davomida bu o'quvchi yoshlarga chet tilidan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish imkonini yaratadi. Ammo ilmiy rivojlanish, istalgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va keng ko'lamli izlanishlar olib borish uchun xorijiy tilni shunchaki muloqot vositasi sifatida o'rganish yetarli emas. Buning uchun Cross-curricular Teaching ya'ni ingliz tilini sohalarga bo'lib o'qitishni chet tilini o'rgatish jarayonida uni kelajak fanlari hisoblanmish kimyo, biologiya, IT, Texnologiya kabilar bilan uzviyligini



ta'minlashimizga to'g'ri keladi. Chet tilini fanlar bilan bog'liqlikda o'qitmas ekanmiz, uning ilmiy maqsadlarga xizmat qilishini tasavvur etish qiyin.

Muammoga yechim sifatida Teaching for Specific Purposes ya'ni chet tilini aynan bir yo'nalishga bog'lab o'qitish usulini ko'rishimiz mumkin. Har bir fan yo'nalishining o'ziga xos tushuncha va leksikasi borki buni u yoki bu tildan tarjimon orqali o'girib tushunib olish qiyin, faqatgina shu sohani o'qib o'rgangan insongina o'qib tushuna oladigan jihatlari borki, bu bizga tarjimonlarni emas, chet tilidan erkin foydalana oladigan soha egalarini yetishtirishni talab etadi. Agar biz chet tilini o'qitish barobarida uni aynan boshqa fanlarga joriy etib birgalikda o'rgatsak, ularda mazkur tilga nisbatan kognitiv ko'nikmalar shakllantira olgan bo'lamiz. Bu jarayon ta'lim tizimining oldiga o'ta dolzarb bo'lgan ayrim vazifalarni qo'yadi:

- Oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish tizimini tubdan isloh qilish, ya'ni bu tilni chet tili sifatida emas ta'lim tili sifatida mutahassislik fanlarini o'qitishda tadbqiq etish va shu orqali kadrlarning ilmiy tadqiqot olib borish imkoniyatlarini oshirish va ularning saviyasini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish;
- Har bir fan tarmoqlarida chet tilida dars bera oladigan ustoz kadrlar bazasini yaratish;
- Chet tilidagi fan darsliklari va ilmiy qo'llanmalar bilan o'quvchi va talabalarni ta'minlash;
- Fan tarmoqlariga ixtisoslashgan umum ta'lim maktablarida fan dasturlarini to'la chet tilida o'tilishini bosqichma bosqich ta'minlash;
- O'quv dasturlarida fanlar integratsiyasini ta'minlash.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, chet tilini boshqa fanlar bilan o'qitish kelajakda ilmiy rivojlanishga sarflanadigan davlat mablag'larini ham ko'p miqdorda tejaliishi va ilmiy fan yutuqlarining mamlakatimizga kirib kelishi jadallashvi va har qanday mustaqil izlanuvchi va ilm fan kishilarining dunyo taraqqiyotiga bevosita bog'lana olishini ham ta'minladi. Bu borada tahliliy o'rganilgan materiallar ingliz tilini o'qitishda fanlararo aloqalarni amalga



oshirish yo'llarini taklif qildi, ammo hech bir joyda ingliz tilidagi material muddatidan bir yoki ikki yil oldin yoki undan ham ko'proq beriladi, deb aytilmagan va shuning uchun nafaqat o'qituvchi qiyinchiliklarga duch keladi (ya'ni, chunki. u birinchi navbatda ona tilida materialni to'g'ri tushuntira olishi kerak va bu vaqt talab etadi, bundan tashqari, bu mamnuniyat bilan qabul qilinmaydi va ehtimol faqat ba'zi hollarda), balki bolalarda ham qiyinchiliklarni yazaga keltiradi.

Har bir o'quvchi o'z ona tilini bilish asosida chet tilini o'rganishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, kasb maktabi siklining fanlari mavjud bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda ularga tayanish zarur. Ona tilidan sinonimlar, antonimlar, dialog, monolog, tavsif, rivoyat, mulohaza yuritish, nutqning kompozitsion tuzilishi va boshqalar kabi tushunchalar; adabiyotdan - matn, fikr, asosiy fikr, she'rlar, maqollar, matallar va boshqalarni keltirish. tasviriy san'atdan – portret rasm, landshaft, mavzu kompozitsiyasi o'qituvchi uchun asos hisoblanadi. Ingliz tilini o'qitishda fanlararo aloqalardan foydalanish istiqbollari yaratish lozim. Bir fan bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib, boshqasini o'zlashtirish usulini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatiga ma'lum masalalarni yechishda ko'proq maqsadlilikni kiritadi, mustaqil ish usullarining faolligini oshiradi, yaxshi bilim olishini ta'minlaydi. Aqliy faoliyatni tashkil etish va nihoyat, umumiy va xususiy muammolarni hal qilishda mantiqiy ketmaketlikni ishlab chiqishga yordam bo'ladi. Ular o'qitishga kompleks yondashuv va uning ta'lim bilan birligini mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning o'quv faoliyatida fanlararo aloqalarni amalga oshirishni faollashtirish, bilimlarni tizimlashtirish, mustaqil fikrlash va kognitiv qiziqishni shakllantirishning didaktik sharti bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlaridagi kabi xorijiy tilni maqsad emas, maqsad sari bir vosita sifatida ko'rmas ekanmiz, yillar davomida qilingan mehnat va sarflangan byudjet mablag'lari o'zini



oqlamaydi. Tilni shunchaki o'rganish emas, uni asosiy maqsadga eltuvchi yo'l sifatida foydalanishimiz kerak. Aks holda u bizni xalqaro ilm maydoniga olib chiqa olmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. –T.,2020.
2. Diane Larsen-Freeman and Marti Anderson: Techniques and principles in Language Teaching-Oxford University Press, 2011
3. Jossey Bass: "The courage to Teach"- San Francisco,1998
4. Mc.Namara: "Mapping the Scope of Theory in TESOL",2008
5. Cook.G: "Translation in Language Teaching-An argument for Reassessment"-Oxford University Press, 2010